

OLIIY TA'LIM TIZIMIDA DARSLARIDA TALABALARNING AXBOROTLAR BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TAHLILI

Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich

Osiyo Xalqaro Universiteti "Umumtexnika" kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Ta'lim tizimida axborotlardan foydalanish yuzasidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, ammo talabalarning axborot maydonidagi o'rni va roli yetarlicha o'rganilmagan. Zero, ta'lim jarayonining asosiy vazifasi ta'lim oluvchilarga zarur axborot yetkazish, ularning o'zlashtirilishiga erishish hamda o'zlashtirilgan axborotlarni qo'llay olishga o'rgatishdir.

Kalit so'zlar: propedevtik, material, interpretatio, kompetensiya, sintez, predmet, komponent.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ В РАБОТЕ С ИНФОРМАЦИЕЙ НА УРОКАХ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Джураев Миржалол Геронович. Доцент кафедры "Общественных наук"
Азиатского международного университета.

Аннотация: Был проведен ряд научных исследований использования информации в системе образования, но роль и место учащихся в информационном поле изучены недостаточно. Ведь главная задача образовательного процесса - донести до обучающихся необходимую информацию, добиться ее усвоения и научить применять усвоенную информацию.

Ключевые слова: пропедевтика, материал, интерпретация, компетенция, синтез, предмет, компонент.

PEDAGOGICAL ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF COMPETENCY OF STUDENTS ' WORK WITH INFORMATION IN THEIR CLASSES IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM.

Djurayev Mirjalol Qahramanovich. Associate professor of the Department of
"Department of All-encompassing", International University of Asia

Abstract There have been a number of scientific studies on the use of information in the educational system, but the role and role of students in the information field have not been sufficiently studied. After all, the main task of the educational process is to

convey the necessary information to the learners, to achieve their assimilation and to teach them to be able to apply the acquired information.

Key words: propedeutic, material, interpretatio, competence, synthesis, subject, component.

Ilmiy adabiyotlarda o'quv jarayonining dastlabki bosqichi o'rganilayotgan mavzu doirasida axborotlar to'plash bilan xarakterlanishi ta'kidlab o'tilgan. Ma'lumki, boshlang'ich ta'limda o'rganiladigan o'quv fanlari ta'limning keyingi bosqichlarida o'rganiladigan fanlar uchun propedevtik materiallar (fanlar yuzasidan qat'iy algoritm asosida, aniq maqsad sari quyi bosqichda o'rganiladigan axborotlar) bilan ta'minlashni nazarda tutadi. Xususan, aniq fanlar, informatika kabi fanlar uchun propedevtik materiallar (ushbu fan sohalari bo'yicha o'quv axborotlari) bilan ishlash (axborotlar to'plash asosida o'zlashtirish, birlamchi qayta ishlov berish asosida qo'llay olish) ga o'rgatishning dastlabki bosqichi sifatida xarakterlanadi. Shuning uchun talabalarda axborotlar bilan ishlash tayanch kompetensiyasini shakllantirishda matematika fani ustuvor hisoblanadi.

An'anaviy ta'limda yangi mavzular talabalarga algoritmik tarzda berilib, so'ngra uni mustahkamlash uchun mashqlar berish orqali o'rgatiladi. Mustahkamlovchi darslarda o'z navbatida, o'tgan mavzularga oid bilimlar tizimlashtirilib chiqiladi. Talabalar axborotlarni tushunish, interpretatsiya (lot. «interpretatio» - tushuntirish, izohlab, berish

Axborotni tahlil qilish ya'ni, axborotning ma'nosini, tub mohiyatini ochib berish, tushuntirishga kam jalb qilinadi. Lekin, inson hayotiy faoliyat davomida doimiy ravishda muammolarni tahlil qilish, yechimlarni sinovdan o'tkazish bilan shug'ullanadi. Bu jarayonni qanday amalga oshirishni xayotiy faoliyatlarni bajarish davomida o'rganib boradi va muammolarni tahlil qilib boradi.

Talabalarning hayotiy faoliyatlar davomida moddiy borliqdagi predmetlar, atrofdagi voqea-hodisalar, o'z xatti-harakatlari, ijtimoiy munosabatlar to'g'risidagi axborotlarni doimiy tahlil qilishi, baholab borish asosida eslab qolishi, anglash asosida qo'llay olishi o'rganilayotgan axborotning ahamiyatini tushunishida muhim o'rin tutadi. Shuning uchun aniq fanlarning darslarida axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini mustaqil hayotiy faoliyatlar davomida axborotlar bilan ishlash kabi yondashuv (axborotlarni tahlil qilish, sintez qilish, baho berish asosida eslab qolish hamda tushunish asosida qo'llash) bo'yicha tashkil etish maqsadga muvofiq. Axborotlarning tahlili va sintezi axborotlarni o'zlashtirishning mukammal darajasi sifatida anglagan axborotni eslab qolish hamda qo'llay olishga yordam beradi. Axborotlarni tahlil qilish, xulosalarni sintez qilish axborotlarni o'zlashtirishning mukammal darajasi hisoblanib, o'quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zero, o'quvchilar o'zlari


anglagan axborotni eslab qoladi va qo'llay oladi. Buning uchun o'quvchilarni:

- Mustaqil o'ylashga jalb qilish: o'quvchilar tushunchani o'zlari topishlari, o'zlari tushunishlariga erishish lozim. Chunki bu jarayonni hayotiy faoliyatlari davomida qayta-qayta amalga oshirishadi;

- noma'lum vaziyatlar uchun moslashtirish: agar o'qituvchi axborotlar bilan ta'minlab, tushuntirib, tushunchani mustahkamlash uchun amaliyotda qo'llashga o'rgatsa, talabalar bilimlarini faqat tanish vaziyatlar uchun qo'llay oladi. Moslashuvchanlikni rivojlantirish, jarayonning yo'nalishiga qarab ishning borishini tahlil qilish va olib borish kutilmagan vaziyatlarda ham samarali natijani kafolatlaydi.

- axborotlarni mustaqil izlashga o'rgatish: axborotlarni o'quvchilarga shunchaki taqdim etish emas, kashf qilishlariga imkon berish.

O'rganilayotgan axborotning ahamiyatini tushunish muhim bo'lib, ularni o'zlashtirishda jalb qilish, yo'l yo'riqlar berish, qiziqish uyg'otish kabi tamoyillarga asoslanadi. Bu axborotlarni baholash asosida amalga oshiriladi. Inson hayotiy faoliyati davomida o'z xatti-harakatlari, atrofdagi voqea-hodisalar, ijtimoiy munobatlar, moddiy borliqdagi mavjud predmetlar to'g'risidagi axborotlarini doimiy baholab boradi xususan, o'quvchilar ham. Baholash asosida ular to'g'risidagi axborotlarni eslab qoladi, tushunadi va qo'llay oladi. O'quv materiallarining asosiy qismi mavzularni o'zlashtirishga xizmat qiladi, ammo keyinchalik unutiladi. Talabalar o'z navbatida, faol qatnashish asosida o'zlashtirgan, tushungan, ixtiyoriy idrok qilgan bilimlariga ko'proq tayanishadi. (1.-rasm).



**1-rasm. Ta'lim jarayonida hayotiy faoliyatga
jarayoni kabi axborotlar bilan ishlash**

Axborotlar bilan ishlash kompetentligini rivojlantirishda ta'limni hayotiy faoliyatlar bilan uyg'unlikda olib borishda: o'quv axboroti, muhim axborotlar, muhim savollar (o'quvchilarni qiziqishini faollashtirish va kuchaytirish), mezonlar tahlil qilish sintez qilish baho berish eslab qolish axborotning ahamiyatini tushunish tushuncha (kerakli axborotlar zahiralari to'plash) qo'llash (faollashish, jalb qilish) ketma-ketligida o'quv faoliyati amalga oshiriladi.

Axborotlar bilan ishlashda o'quvchilar mustaqil hayotiy faoliyatlari kabi dastlab axborotlarni tahlil qilish, ularni sintez qilish, axborotlarga baho berish asosida zarur axborotlarni eslab qolish, axborotlarni ahamiyatini tushunish va axborotlarini qo'llash orqali axborotlarini yig'ish, tahlil qilish va yakuniy xulosani sintezlash aniq tushuntirish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. B.X.Shaymatov, B.S.Abdullaeva, M.Q.Jo'raev, "Elektr mashinalari", Buxoro: BMTI, 2022 y.-209 b.
2. M.Q.Jo'rayev, F.J.Xudoynazarov "Elektr mashinalari" fani taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari Maqola. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 11 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-11-1184-1190
3. Jo'rayev M. Q. "Oliy ta'lim muassasalarining elektr energetika yo'nalishi talabalariga elektr mashinalari fanini hozirgi kunda o'qitish tahlili". Toshkent 2021 1-son 18 bet
4. Jo'rayev M. Q. "Elektr yuritmalari tezligini rostlash usullari" Ilmiy-nazariy va metodik jurnal Buxoro 2021, № 5 114 bet
5. Development of teaching methods in the field of "electrical machines" using new pedagogical technologies 1Jo'rayev M. K, 2Husenov D. R, 3Sharopov F.K. International Engineering Journal For Research & Development 584-586 p
6. Jo'rayev, M. Q., & Xudoynazarov, F. J. (2021). "Elektr mashinalari" fani Taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari. Academic Research in Educational Sciences, 2(11), 1184-1190. doi:10.24412/2181-1385-2021-11-1184-1190 bet
7. Jurayev Mirjalol Kahramonovich "Software analysis of electric machine science" ISSN:2776-0960 Volume 3, Issue 1 Jan., 2022 143P a g
8. Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich "ELEKTR ENERGIYASINI EKSPLUATATSIYA QILISHDA TRANSFORMATORLARNING AHAMIYATI" "PEDAGOGS" international research journal ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995
9. Жўраев М.К. Электр юритмалар тезлигини ростлаш усуллари Педагогик маҳорат Илмий-назарий ва методологик журнал Бухоро 2021, №23, 114-118 б,(13.00.02)
10. Jo'rayev M. Q. Scientific methodical bases of the science of electric machines academia: An International Multidisciplinary Research Journal ISSN: 2249-7137Vol.12,Issue09,September 2022 SJIF 2022=8.252 A peer reviewed journal<https://www.indianjournals.com>

11. Jo'rayev M. Q. Ilmiy konferensiya "Elektr mashinalari fanini o'qitish didaktik takomillashtirish jihatlari" INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION SCIENCES AND HUMANITIES International scientific-online conference 4nd part, 2-124 pages Part 4 September 29 CANADA <https://zenodo.org/record/7146065>
12. Jo'rayev M. Q. Ilmiy konferensiya "Elektr mashinalari fani rivojlanish ginezisi va mazmuni" INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION SCIENCES AND HUMANITIES International scientific-online conference 4nd part, 2-124 pages Part 4 September 29 CANADA <https://zenodo.org/record/7146065>
13. Jorayev Mirjalal Kahramonovich OPINIONS OF UZBEK AND FOREIGN SCIENTISTS IN TEACHING THE SCIENCE OF ELECTRIC MACHINES 76-80 British Journal of Global Ecology and Sustainable Development <https://journalzone.org/index.php/bjgesd/article/view/317> ISSN (E): 2754-9291
14. Джураев Мирджалал Кахрамонович, Камалов Камал Малик угли «Синхронные машины», инновационные методы в обучении <http://www.ijaretm.com/> ISSN:2349-0012
15. Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich, Jafarov Sobir Talab o'g'li, Nizomov Nozimjon Zafar O'g'li, Kamolov Kamol Malik o'g'li "Qadoqlash sexidagi qo'llanilgan elektr yuritmani boshqarish blokini takomillashtirish orqali maxsulot namligini mo'tadil saqlash" <https://wordlyknowledge.uz/> ISSN : 2181-4341
16. Жўпаев М.Қ., Software Analysis of Electric Machine Science, Research Jet Journal of Analysis and Inversions IF-7.6, <https://reserchjet.academiascience.org/index.php/rjai/article/view/414> ISSN 2776-0960
17. Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich, Jafarov Sobir Talab o'g'li "Methodology of teaching experimental work, organization of independent work in technical higher education institutions" <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/192>
18. Jo'rayev, M. Q., Rashidov, H. H., & Murodov, A. O. (2023). Texnika oliy ta'lim muassalarida fanlarning amaliy ko'nikmalarni oshirishning qiyosiy tahlillari. Innovative development in educational activities, 2(21), 4–11. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10138064>
19. Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich, Po'latov Bexruz Zafarovich, Ravshanov Abbas Yashin o'g'li, Rashidov Hamrozbek Hayotovich International conference pedagogical reforms and their solutions VOLUME1, ISSUE2, 2024 <https://worldlyjournals.com/index.php/PRS/article/view/860>
20. Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich, Rashidov Hamrozbek Hayotovich "Elektrotexnika va elektronika" fanini o'qitisha zamonaviy pedagogik texnologiyalari tahlili. ISSN 2181-4341. VOLUME 8, ISSUE 2, MARCH, 2024 <https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/1312>